

# Uzun tumanidagi 8 ta mahallada obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari amalga oshiriladi



Kuni-kecha Oliy Majlis Senati a'zosi, 60-Fayzova saylov okrugidan saylangan deputat, viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Uzun tumani "Nurafshon" mahallasida saylovchilar bilan uchrashuv o'tkazdi. Unda saylovchilarning murojaatlari tinglandi va ularni qiynab kelayotgan masalalar mas'ullar ishtirokida o'rganildi.

Fuqarolar tomonidan asosan, yo'llarni toshlash, asfaltlash, ko'priklar ta'miri, qabriston uchun yer ajratish, daryo qirg'oqlarini muhofazalash, ichimlik va oqova suvi bilan ta'minlash, elektr ta'minotini yaxshilash, beton ustunlar va transformator o'rnatish, maktab qurish kabi masalalar o'rta tashlandi. Har bir masalani batafsil o'rganib chiqish va hal etish bo'yicha tuman rahbarlari va soha mas'ullariga aniq muddatlar bilan vazifalar yuklandi.

Viloyat rahbari aholi murojaatlaridan kelib chiqib, hududdagi 8 ta mahallada, xususan, "Nurafshon", "O'lanqul", "O'rmonchi", "Fayzova", "Surxon", "Fayzobod", "Madaniy turmush" va "Xursand" mahallalarida keng ko'lamli obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlarini olib borish maqsadida "Nurafshon" mahallasida Shtab faoliyatini yo'lga qo'yish, zudlik bilan ishlarni boshlash bo'yicha ko'rsatma berdi.

Hozirda shtab faoliyati yo'lga qo'yilib, 8 ta mahalladagi mavjud muammolarni o'rganish ishlari boshlandi. Ushbu mahallalarda ishlar yakunlangach, boshqa mahallalarda ham uchrashuvlar o'tkazilib, infratuzilmani yaxshilash ishlari olib boriladi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)